

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING UNIVERSAL TA’LIM  
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH**

*Orif Abduxalikovich G‘aniyev*

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning universal ta‘lim faoliyatini rivojlantirish muammosi tahlil etilgan hamda universal ta‘lim harakatlarining asosiy turlari aniqlashtirilgan. Talabalarda metametodik kompetentlikni shakllantirish muammosi doirasidagi asosiy tushunchalar pedagogik talqin etilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik faoliyat, ta‘lim, metametodik kompetentlik, universal ta‘lim harakatlari, universal ta‘lim harakatlari turlari.

**Annotation:** this article analyzes the problem of the development of universal educational foality of future teachers and clarifies the main types of universal educational actions. In students, the basic concepts within the framework of the problem of formation of metametodic competence are interpreted pedagogically.

**Keywords:** pedagogical activity, education, metametodic competence, universal educational actions, types of universal educational actions.

Dunyoda yuz berayotgan global jarayonlar ta‘lim va tarbiya makonini jadal takomillashtirish, davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga oladigan ta‘lim maqsadlarini aniqlashni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan oliy ta‘lim muassasalarida ta‘limning asosiy natijalariga qaratilgan va talabalar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan universal o‘quv faoliyatini loyihalash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim tizimida ta‘lim oluvchilarni rivojlantirish, birinchi navbatda, ta‘lim va tarbiya jarayonining invariant asosi bo‘lgan universal (metapredmetli) o‘quv harakatlarni shakllantirish orqali ta‘minlanadi. O‘quvchilar tomonidan umumrivojlantiruvchi o‘quv faoliyatini, ya‘ni yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil muvaffaqiyatli o‘zlashtirish ushbu jarayonni samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Bugun umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflari bitiruvchilarini ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda turli xil tashkiliy, mustaqil bilim olishga oid va kommunikativ vazifalarni samarali bajara olishga tayyorlash asosiy vazifalardan biridir. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ushbu faoliyatga maqsadli tayyorlash zarurati paydo bo‘ldi. Demak, bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»,

“Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi farmon va qarorlarida, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar, oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”da o‘quvchilarda universal bilimlarni shakllantirish orqali dunyoni yaxlit tasavvur etish, ijodiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, o‘quvchi shaxsini o‘zida o‘zi rivojlantirish, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi.

Talabalarda (o‘quvchilarda) metametodik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy jihatlari L.F. Kvitova, K.Yu. Kolesina, M.R. Leontevalarning ilmiy ishlarida; o‘quvchilarga ijtimoiy masalalarni yechish variantlarini topa olishga imkon beruvchi metapredmetli ko‘nikmalarni shakllantirish masalalari O.Ye. Lebedeva, P.G. Шедровскилар tomonidan; talabalarining metametodik kompetensiyalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishning ayrim jihatlari B.A. Taxoxov, M.I. Bekoeva, Z.K. Malievalar tomonidan tadqiq etilgan.

Metapredmetlilik, metametodika, metametodik yondashuv, metametodik kompetentlik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati ham ilmiy-pedagogik adabiyotlarda yetarlicha to‘liq ochib berilmagan.

Ayrim tadqiqotchilar, jumladan, Yu.V. Громько metapredmetlilik tushunchasini «predmetlilikgacha», ya’ni faoliyatga yo‘naltirilgan didaktika sifatida talqin etadi.

A.V. Xutorskoyni fikricha, metapredmetlilik – bu fundamental ta’lim ob’ektlaridir [1].

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda metametodika ta’lim jarayonida o‘quvchilarda dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish maqsadida integratsiya jarayonlarini tadqiq etuvchi metodikaning yangi bir yo‘nalishidir degan qarashlar ham mavjud (I. V. Blauberg, L. Bertalanfi, G. Sheffer, N. V. Gruzdeva, A. Ya. Danilkj, I D Zverev, V N Maksimova, G. A. Monaxova va b.). Shunday qilib, metametodika turli xil fanlarni o‘qitish metodikalarining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda o‘quvchilarning yoshini inobatga oladigan o‘zaro integratsiyasidan tashkil topadi (Ye. P.Voyushina, G. N. Ionin, N. S. Podxodova, I. M. Titova va b.).

Ushbu ma’noda metametodikaning integratsion-mazmuniy va tashkiliy-faoliyatli jihatlari ajratib ko‘rsatiladi. Birinchi aspekt doirasida metametodika turli xil fanlarni o‘qitish metodikalari mazmunini, asosiy tushunchalarini integratsiyalash asosida o‘quvchilarda dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish yo‘llarini, ya’ni, ushbu jarayonning nazariy-metodologik asoslarini hamda amaliy-metodik jihatlarni tadqiq etadi. Pedagogikada ushbu vazifa oxirigacha hal etilmagan. Ayni paytda ushbu muammoning ayrim jihatlari integratsiyalashgan kurslar tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘z ifodasini topmoqda (N. V. Grishenko, Yu. I. Dik, G. D. Kirillova, I. A. Kolesnikova va b.), turli xil fanlarga umumiy bo‘lgan tushunchalarni

tanlash orqali ularni integratsiyalash bilan bog‘liq tadqiqotlar ham mavjud [2].

Metametodikaga ma’lum metodlarga bog‘liq bo‘lmagan, ammo ularni birlashtirgan, didaktikaga parallel ravishda mavjud bo‘lgan, o‘qitishning umumiy metodologik tamoyillarini shakllantiradigan va o‘qitish muammolarini o‘rganishda o‘ziga xos usullarga ega bo‘lgan fan sifatida qarashlar ham mavjud.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida metametodikada universal o‘quv harakatlarini tasniflashga asosiy e’tibor berilib, o‘quvchilarda ularni shakllantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni ushbu jarayonga maqsadli tayyorlash maslali ustida A.G. Asmolov, G.V. Burmenskaya, I.A. Volodarskiy, S.G. Vorovnikov, A.T.Nurmanov kabi zamonaviy tadqiqotchilar izlanishlar olib bormoqdalar.

Jumladan, universal o‘quv harakatlari A.G. Asmolov tomonidan quyidagicha tasniflanib, ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan: shaxsiy, regulyativ (tartibga soluvchi), bilishga oid hamda kommunikativ universal o‘quv harakatlari [2].

A.B. Xutorskoy kognitiv (bilishga oid), kreativ (ijodiy), tashkiliy faoliyatga oid (metodologik), kommunikativ hamda qadriyatli (dunyoqarashga oid) universal o‘quv harakatlarini taklif etadi [3].

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida metametodik kompetensiyalarni rivojlantirishning mazmuni, innovatsion metod va texnologiyalari, pedagogik shart-sharoitlari hamda amaliy-texnologik jihatlari pedagogika fanida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayni paytda dunyoning yetakchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy markazlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda universal o‘quv faoliyatini, ya’ni metametodik kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy loyihalar amalga oshirilib, ushbu jarayonning metodologik jihatlari va modellari ishlab chiqilmoqda.

Tadqiqotimiz jarayonida ushbu metodologiya asosida universal o‘quv harakatlarining nomenklaturasi aniqlandi, ularning psixologik mazmuni va ta’lim jarayonida shakllanish yo‘llariga umumiy tavsif berildi. Universal ta’lim faoliyati turlarini farqlash mezonlari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: funksiyalar, tuzilish va shakl, yuzaga kelish xususiyatlari, shu jumladan, o‘quv faoliyatini tashkil etish shartlari.

Tahlil natijasida universal ta’lim harakatlarining asosiy turlari aniqlandi:

- shaxsiy universal harakatlar (o‘z taqdirini o‘zi belgilash, qadriyatlarni shakllantirish, axloqiy va axloqiy baholash harakati);
- regulyativ - tartibga soluvchi universal harakatlar (maqsadni shakllantirish, rejalashtirish, nazorat qilish, tuzatish, baholash, bashorat qilish);
- kognitiv universal harakatlar (bilishga oid, mustaqil bilim olish bilan bog‘liq);
- kommunikativ universal harakatlar.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun xos bo‘lgan shaxsiy, tartibga soluvchi, kognitiv va kommunikativ universal ta’lim harakatlarining shakllari, o‘quv jarayonida ularning rivojlanish shart-sharoitlari va omillarini aniqlash asosida ta’lim

mazmunini hisobga olgan holda ularning shakllanishini tashkil etish bo'yicha psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ldi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun o'quvchilarda universal ta'lim harakatlarini shakllantirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi va tajriba-sinov ishlari jarayonida amaliyotga joriy etildi. Ushbu dasturning amalga oshirilishi boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi degan ilmiy faraz ilgari surildi.

Bo'lajak o'qituvchilarda metametodik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida metametodik (universal) o'quv harakatlarini shakllantirish texnologiyasi" tanlov fan dasturi o'z ichiga, bir tomondan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal o'quv harakatlarini shakllantirish maqsad va vazifalarini, metod, shakl va vositalarini qamrab olsa, ikkinchi tomondan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ushbu jaryonga tayyorlash, ularda metametodik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirildi.

"Boshlang'ich sinf o'quvchilarida metametodik (universal) o'quv harakatlarini shakllantirish texnologiyasi" tanlov fanini o'qitishdan maqsad – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida metametodik kompetentlikni shakllantirish, ya'ni ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal o'quv harakatlarini shakllantirish jarayoniga tayyorlash, ushbu jarayonni amalga oshirishni ta'minlashdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Хуторской А.В. Метапредметный подход в обучении: научно-методическое пособие. — М.: Издательство «Эйдос»; Издательство Института образования человека, 2012. С-73.
2. Асмолов А. Г. Как проектировать универсальные учебные действия: от действия к мысли / Под ред. А. Г. Асмолова / А. Г. Асмолов, Г. В. Бурменская, И. А. Володарская, О. А. Карабанова, С. В. Молчанов, Н. Г. Салмина. — М., 2008.
3. Хуторской А.В. Метапредметный подход в обучении: Научно-методическое пособие. — М.: Издательство «Эйдос»; Издательство Института образования человека, 2012. — 73 с.
4. Abdinazar T. Nurmanov, Anjella A. Babayeva, Firuza U. Zoirova. Virtual excursions as an innovative technology for forming the communication competence of students in russian lessons in schools with uzbek and other languages of instruction// International Journal of Mechanical Engineering. Том 7. № 2. С. 1780-1783. - 2022/2/2. Издатель: Copyrights @Kalahari Journals.
5. G'aniyev, O. (2020). Improving technologies for the development of metamethodical competence of future teachers. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
6. G'aniyev, O. (2021). Bolalarni oilada ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari.
7. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1401>